



XORAZM VILOYATI HAZORASP TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

Hazorasp tumani, E.Gayazov ko'chasi, 32-uy

2024 - yil 16 - mart

61-12-174-F/24

Hazorasp tuman hokimligi

Tuman ichki ishlar bo'limining 2024-yil 15-martdagi 10/1266-sonli yozishmasini e'tiborga olib, Hazorasp tumanida "Navro'z" umumxalq bayrami tadbirlarini o'tkazishda, jamoat hamda transport xarakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida:

1. Navro'z umumxalq bayrami o'tkazilishi belgilangan kuni quyidagi davlat axamiyatidagi yo'llarda:

- 4r 156 avtomobil yo'lining 57,2 kmdan, 4r 156 avtomobil yo'lining 57,3 kmgacha transport vositalarining harakat qatnovini vaqtinchalik to'xtatib qo'yilsin.

2. Tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i (J.Madaminov)ga:

- Bayram dasturlari o'tkaziladigan maydonlar oldilaridan 150 metr uzoqlikda transport vositalarini saqlash joylari hamda na'munali jamoat tartibini saqlash, harakatlanish xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rish, ushbu hududlarda qarovsiz qoldirilgan va shubhali ko'ringan transport vositalarini xavfsiz joyga o'tkazish choralarini ko'rish topshirilsin.

3. Ushbu farmoyish bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari F.Sobirov va tuman IIB boshlig'i J.Madaminov zimmlariga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Z.Abdirimov